

FALSAFADAGI ZAMONAVIY OQIMLAR VA YO'NALISHLAR  
XILMA-XILLIGI

*SUNNATOV SAIDAKBAR SAIDKAMOL O'G'LI. TDTTr.U talabasi.*

*Ramatov Jumaniyoz Sultanovich. Ilmiy raxbar.*

**Annotatsiya:** *Hozirgi zamon falsafa va sotsiologiyasida 80 dan ortiq oqimlar mavjud bo'lib ularni ba'zilarini nomlarini tilga olamiz xolos. Neogegechilik, tanqidiy realizm, madaniy konservatizm, mantiqiy pozitivizm, neoratsionalizm, ratsionalizm, mantiqiy empirizm, postpozitivizm, "ochiq jamiyat" so'l katolitsizm, semantizm, neostrukturalizm, radikalizm, ssientizm, texnokratik determinizm, ekzistensializm va boshqalar shu oqimlar jumlasidandir.*

**Kalit so'zlar:** *pozitivizm, determinizm, ratsionalizm, mantiqiy empirizm, postpozitivizm.*

**Abstract:** *There are more than 80 currents in modern philosophy and sociology, and we will mention only some of them by name. Neo-Hegelianism, critical realism, cultural conservatism, logical positivism, neo-rationalism, rationalism, logical empiricism, post-positivism, left Catholicism, semanticism, neostructuralism, radicalism, scientism, technocratic determinism, existentialism and others are among these currents.*

**Key words:** *positivism, determinism, rationalism, logical empiricism, postpositivism.*

XX asr nihoyatda shiddatli, ziddiyatli, serqirralidir. Ayniqsa ijtimoiy tuzumlar o'zgarishi diqqatga sazovordir.

Ilmiy texnika taraqqiyoti, atom, yadro qurollari, qayta qurish jarayonlari, kosmik fanlarni tashkil topishi, dunyo xaritasi mamlakatlar bilan boyishi falsafiy tafakkurni o'zgarishiga ta'sir qildi.

XX asr, ta'kidlaganimizdek, voqealarga boy bo'lib XIX asr oxirida yuz bergan tabiatshunoslikdagi kashfiyotlar bu asr rivojiga turtki bo'ldi. Asosan,

ijtimoiy hayotni rivojlanishiga, aynan ijtimoiy falsafa muammolarini qayta talqin qilishga olib keldi. Muammolarni yechishga, xulosalar chiqarishga yordam berdi. Shu sababli ham Yevropada, jahonda falsafaning mavqei, mavzusi eskirmadi, balki yangicha tus va xarakterda namoyon bo'ldi. XX asr boshlaridagi revolyusiyalar, jahon urushi, sotsialistik revolyusiya, ikkinchi jahon urushi, atom va yadro qurolini paydo bo'lishi, kosmik fazoda olib borilgan ilmiy izlanishlar, sovuq urush muammolari, sotsialistik mamlakatlardagi turg'unlik yillari, sotsialistik lagerni tarqalishi, qayta qurish jarayonlarini kelib chiqishi ijtimoiy muammolar bo'lib, ular ko'proq falsafani taraqqiyoti uchun asos bo'ldi.

Markscha- Lenincha falsafani davr talabiga javob bermaydigan xususiyatlari namoyon bo'la boshladi. Klassik faylasuflar (Marksgacha) ta'limotlari tarafdorlari yaratgan ta'limotlar yangi davrda yangicha klassik tus ola boshladi. 80-nci yillarda platonizm, aristotelizm, tomizm, spinozaizm, kantchilik, gegelchilik, nisshechilik kabi ta'limotlar XX asr sharoitidan kelib chiqib rivojlana boshladiki, bu falsafani taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmadi. Klassik ta'limotlarni «reviziya» qilish natijasida ularni hozirgi davr uchun aktualligi ancha oshdi. Ijtimoiy-siyosiy holatni yangicha talqin qilishga o'tildi. Ayniqsa, so'l katoliklar bilan maxsus mafkurachilar (marksistik) o'rtasida tortushuvlar kelib chiqdi. Bunga sabab ma'lum darajada matbuotdagi diniy shovshuvlarni inkor qilib bo'lmaydigan xayoliy dalillarni paydo bo'lishidir. Shuningdek Amerika shifokorlar jamiyati raisi doktor Ueyr Mitchel bilan akademik Prischerning ruhiy kechinmalar to'g'risidagi tortushuvlari yangicha falsafiy yondoshishlarni talab qila boshladi.

XX asrdagi falsafani ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o'zni muammosi tortushuvlarni markazida turdi. Bu muammoni ilmiy talqin qilishda antipozitivistik qarashlar ustun keldi: insonni olamdagi o'zni, insoniylik va individ, madaniy qarashlar birligi, turliligi, insoniyatni sivilizatsiya davridagi taqdiri, hozirgi zamonda insonni mohiyati va tutgan mavqei, yangicha tafakkurlash kabi sohalar davr talabidan kelib chiqdi. Bu muammolar ichidagi ustuvor yo'nalishni insoniyatni yashab ketishi, tinchlikni saqlash, dunyoviy

urushlarni oldini olish kabilar egalladi. Aslida, ilg'or faylasuflar fikricha, bu muammolar ko'proq faylasuflar talqinidan uzoqda bo'lib kelgan edi. Endilikda urush va tinchlik muammosi falsafani markaziy muammosiga aylanib bormoqda. XX asrdagi ilmiy texnika revolyusiyasi oqibatlari va natijalari muhokamasi kengaydi, global muammolar o'rta qo'yildi. Tabiatshunoslik fanlari talqiniga ko'proq berilib ketildi. Tinchlik va urush muammosi hozirgi kunda ham real javobni kutmoqda. Masalaga ijtimoiy yondoshuvni talab qilmoqda. Shu sababli, mazkur soha bilan 70-80 yillarda traditsion faylasuflar emas, balki sotsiolog faylasuflar, jurnalist publitsistlar, futurologlar ham shug'ullana boshladilar. Faylasuflar bilan birga ular ham materiallar to'plab o'z qarashlarini o'rta qo'ydilar. Olamni, jamiyatni rivojlanishini fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'lab uning qonuniyatlarini ochishga ko'maklashdilar. Insoniyat kelajagini nomarksist faylasuflar qadriyatlar bilan bog'lab tushuntirmoqdalar. Yangi qadriyatlar to'g'risidagi ta'limotlarni tushuntirish borasida falsafada "eski" metafizikaning "yangi" metafizik fikrlari paydo bo'lmoqda. Kelajak tushuntirilmoqda. Yangi metafizika tarafdorlari davr nafasidan kelib chiqib o'z mavqeini ravshanroq oshirayotir. Ya'ni ular insonning, jamiyat bilan bog'liq bo'lgan muammolarni qayta tahlil qilishga undayotirlar. Bu muammolar ichida: hukmronlik va bo'ysunish, bo'lakni butunga nisbatan layoqatsizligi, individlarni jamiyat oldidagi kuchsizligi hamda insoniyatni asosi hisoblangan borliq, kosmik jarayonlar ham muhimdir.

Hozirgi zamon falsafa va sotsiologiyasida 80 dan ortiq oqimlar mavjud bo'lib ularni ba'zilarini nomlarini tilga olamiz xolos. Neogegelchilik, tanqidiy realizm, madaniy konservatizm, mantiqiy pozitivizm, neoratsionalizm, ratsionalizm, mantiqiy empirizm, postpozitivizm, "ochiq jamiyat" so'l katolitsizm, semantizm, neostrukturalizm, radikalizm, ssientizm, texnokratik determinizm, ekzistensializm, Baden maktabi, vitalizm, antissentizm, freydizm, falsafiy antropologiya, kantchilik, fizikalizm, xristian spiritualizm, krititsizm va boshqalar shu oqimlar jumlasidandir. Bu oqimlar o'zlarining qarashlari va nazariyalariga ega. Masalan, kantchilik germaniyada Margburg va Freyburg

falsafiy maktablarida, (Kogan G., Natorp A.) paydo bo'ldi. Kantchilik qadriyatlarini tiklashni tavsiya qildi. AQSh va Angliyada yangi gegelchilik oqimi paydo bo'lib irodani aqlga nisbatan ustunligini tahlil qildi. Klassik ratsionalizmdagi iroda masalasini F. Nissheda ham ko'ramiz. U materiya, ruh o'rniga "hayot – hokimiyat tomon intiluvchi iroda"ni qo'ydi, natijada Gitler undan foydalandi. Anri Bergson intuitsiyani o'rta qo'ydi. His-tuyg'u muammosi - hal qiluvchidir, deb chiqdi. Z. Freyd esa psixologiya muammosini o'rta qo'yib barcha jarayonlarni instinkt bilan bog'ladi.

XX asr yuqorida ta'kidlaganimizdek, fan va texnika asri hisoblanadi. Ammo texnik taraqqiyotiga ham bir tekisda baho berilmadi. Ba'zi oqimlar paydo bo'ldiki, bu oqimlarni ba'zilar fan va texnikani bo'rttirib ko'rsatsalar ba'zilar esa uning kuch-qudratiga ishonmadilar. Masalan, ssientizm halq faravonligi ilmiy-texnika natijalarida, deb bildi. Barcha yutuqlar, o'zgarishlar fanning taraqqiyotiga bog'liqdir. Inson oqimining yuqori pog'onasi fan bo'lib kelajak esa shunga bog'liqdir. Bu ta'limot ham ba'zi faylasuflar tomonidan tanqid qilindi. Ularni antisientizm deb yuritdilar. Bu ta'limot tarafdorlari fan yutuqlariga pessimistik ruhda qaradilar. Ijtimoiy progress fan bilan amalga oshmaydi, balki aqliy faoliyat natijasidir. Ular ilmiy-texnika oqibatlaridan xulosalar chiqarib, fanni afsonaviy jarayon deyishgacha boradilar. Texnokratik ta'limotlardan biri texnokratik determinizmdir. Ijtimoiy-siyosiy fan va texnika taraqqiyoti texnokratik qarashlarni keltirib chiqardi. Uni «informatsion jamiyat» ham deb yuritildi. Informatsion jamiyat to'g'risidagi ta'limotlar Arnold Toynbi, Bell Daniel, Elvin Teflerlar asarida berilgan. «Informatsion jamiyat» - kompyuter va telekommunikatsiya vositalari mujassamligidan iborat bo'lgan jamiyat sifatida talqin qilindi. Xulosa shundan iboratki, XX asr falsafasi ko'proq /arbiy Yevropada rivojlandi. Lekin, sobiq SSSRda, ayniqsa O'rta Osiyo respublikalarida kapitalistik yo'ldan chetlab o'tib sotsializmga o'tish to'g'risidagi fikrlar ham paydo bo'ldi. SSSR, Xitoy, Vetnam, Mongoliya mamlakatlarida asosan marksistik falsafa tahlil qilindi. Hindistonda va boshqa rivojlangan mamlakatlarda sekulyarizm ta'limoti rivojlandi (Maxatma Gandi, J. Neru faoliyati, I. Gandi). /arbiy Yevropada 70-80

yillarda sinergetizm haqida fikrlar yuritila boshladi. Sinergetizm oqimi: barqarorlik va beqarorlik haqida fikr yuritdi. Barqarorlik hodisasini o'rganish shu davrga qadar bilinmagan ko'pgina jarayonlarni tushunishga imkon yaratdi.

Sinergetika va dialektika munosabati to'g'risida fikr ketganda ba'zi oqimlar dialektikani eskirganligini o'rtaga qo'ya boshladi Sinergetika tushunchasi, ta'kidlaganimizdek, fanga XX asrning 70- yillarida kirib keldi. U avval tabiatshunoslik fanlarida, keyinchalik ijtimoiy fanlarda, texnikaviy fanlarda o'z-o'zini tashkil qilish, o'z-o'zini boshqarish, tartibsizlik holatlarning umumiy yo'nalishini, qonuniyatlarni bilishga o'z faoliyatini qaratdi. Bu ta'limotni birinchi marta belgiyalik fizik olim Ilya Prigojin, nemis fizik olimi Genrix Xaken va boshqalar tomonidan o'rtaga qo'yildi. Hozirgi davrda aksariyat chet el faylasuflari bu ta'limot bilan qiziqib, uni chuqur o'rganmoqdalar. Turli munozaralar ketmoqda. Chunki, dialektika va sinergetika munosabatlari jiddiy muammo sifatida paydo bo'ldi. Shu vaqtgacha XIX asrni o'rtalarida paydo bo'lgan dialektik materializm tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishini fan yutuqlari asosida tushuntirishga harakat qilib keldi. Lekin, XX asrda tabiatshunoslik fanlaridan biologiya, matematika, fizika, kibernetika, mexanika, ximiya fanlarida yirik kashfiyotlar ro'y berdiki, ularni faqat dialektika tomonidan tahlil qilish kifoya qilmay qoldi. Faylasuflar dialektikadan voz kechmagan holda sinergetikani ham tafakkur uslubi sifatida qo'llamoqdalar. O'zbekistonlik olimlar esa sinergetikani dialektikani davomi, deb bilmoqdalar (Bu sohada faylasuf Inomjon Rahimovning "Tafakkur" jurnalining 1996 yil 2 sonidagi maqolasini o'qishingiz mumkin). Masalan: Inomjon Rahimovning fikricha, XX asrda tabiiy va ijtimoiy fanlardagi kashfiyotlar natijasi o'laroq, ob'ekt bilan sub'ekt, moddiylik bilan ma'naviylik, tadqiqotchi bilan uning ob'ekti, tabiat bilan jamiyat, turli tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga yangicha yondoshuv boshlandi. Uning mohiyati shundan iboratki, fan va falsafaning o'zaro farqi, endi ular orasidagi ziddiyat, qarama-qarshilik hamda ontogenizm to'g'risida emas, balki hamkorlik, birlik haqida fikr yuritishni taqazo qilmoqda. Demak, sinergetika

inson hayotida, fan taraqqiyotida ilgari uchramagan yangi munosabatlarni falsafiy tahlil qiluvchi yo‘nalish sifatida paydo bo‘ldi.

Dialektika taraqqiyotining sabablarini qarama-qarshilik birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘zaro o‘tishi, inkorni inkor qonunida deb tushuntirdi. Sinergetika esa bu qonunlarni taraqqiyotni tushuntirishda yagona manba deb qaramayabdi, balki tamaddun (sivilizatsiya)taraqqiyotiga xos bosh prinsip uzluksizlik, bosqichma-bosqich rivojlanish va muvozanatsizlik, beqarorlikning barqaror sifat kasb etishi, inqirozlarning kabi qonuniyatlarni sharhlab bermoqdaki, ular fan, ijtimoiy hayot taraqqiyotida borgan sari isbotini topmoqda. Jumladan, endilikda ma’lumki, oldin aytib kelinganidek o‘zgarishlar inqilobsiz ham paydo bo‘lar ekan (O‘zbekiston mustaqilligi misolida).

#### REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз кизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой кизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ганибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.

5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухолиқов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗARO АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 44–50.